



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 1-may, № 84 (8707)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



YER YUZINING SAYQALI SAMARQAND — UNESCO KONFERENSIYASI UCHUN MUNOSIB SHAHAR

Samarali va faol tashqi siyosati tufayli O'zbekistonga dunyo mamlakatlarining, turli xalqaro tashkilotlarning ishonchi, xayrixohligi oshib bormoqda. O'zaro aloqalar yanada kengayib, yuqori ko'lam va mohiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda O'zbekistonning UNESCO bilan hamkorligi yangi bosqichga ko'tarildi. Buning natijasida 2017 — 2023-yillarda milliy madaniy merosimizning 14 ta noyob namunasi UNESCO ro'yxatlaridan joy olib, insoniyat merosi sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etildi. Buxoro shahri Ijodkor shaharlar tarmog'iga kiritildi. 2023-yil sentabr oyida UNESCO bosh qarorgohida buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligi keng nishonlandi.

Nuqtai nazar

2023-yil 7 — 22-noyabr kunlari Parij shahrida bo'lib o'tgan UNESCO Bosh konferensiyasining 42-sessiyasi yakunida O'zbekiston Respublikasining UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini 2025-yilda Samarqand shahrida o'tkazish to'g'risidagi tashabbusi bir ovozdan qo'llab-quvvatlangani jahon hamjamiyati tomonidan muhim voqea sifatida e'tirof etildi. Vaholanki, UNESCOga a'zo davlatlardan hech biri, 34-sessiyadan 42-sessiyagacha Bosh konferensiyani o'z mamlakatida o'tkazish tashabbusi bilan chiqmagan edi. Ushbu nufuzli xalqaro anjumanni yuqori darajada tashkil etishga har jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rish, shuningdek, O'zbekiston va UNESCO hamkorligini yanada rivojlantirish

maqsadida Prezidentimizning "2025-yilda UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

Mazkur hujjatga binoan "Samarqand — jahon tamaddunlari chorrahasida" kitob-albomini o'zbek, rus, ingliz va fransuz tillarida chop etish, pochta markalari va konvertlar turkumini yaratish, taqvimlar va ko'rgazmali targ'ibot vositalari, esdalik tangalari, kumush va oltin tangalarning muomalaga chiqarilishi ko'zda tutilmoqda.

Tashqi ishlar vazirligiga esa

UNESCO bosh direktori nomiga O'zbekiston Respublikasining Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha xalqaro tadqiqot markaziga a'zo bo'lishi uchun rasmiy ariza topshirish yuklatildi. E'tiborlisi, UNESCO ishlari bo'yicha milliy komissiya O'zbekistondagi shaharlar, noyob madaniy va tabiiy meros obyektlarini tegishli UNESCOning Ijodkor shaharlar hamda Ta'limni targ'ib etuvchi shaharlar tarmoqlariga,

shuningdek, xalqaro ro'yxatlariga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi.

Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasiga UNESCO mezonlari asosida va xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda Samarqand shahrida Buyuk Ipak yo'li davlat muzeyini tashkil etish, sohibqiron Amir Temur bog'larini qayta tiklash, Bibixonim majmuasini restavratsiya qilish, Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Buxoro

tarixiy markazini muhofaza etishga qaratilgan uning master va menejment rejalarini ishlab chiqish bo'yicha tegishli qarorlar loyihalarini kiritish vazifasi yuklatildi. Ta'kidlash joizki, keyingi paytlarda qadimiy va betakror Samarqand qator dolzarb masalalar yuzasidan global muloqot markaziga aylandi. Jumladan, shaharda BMT mandati ostida uchta forum bo'lib o'tdi.



QISQA SATRLARDA

Aloqalar yuqori bosqichda davom etadi

Xitoyning Shensi provinsiyasi gubernatori Chjao Gan boshchiligidagi delegatsiyaning Samarqandga tashrifi va viloyat hokimi Erkinjon Turdimov bilan uchrashuvi turli yo'nalishlarda rivojlanib borayotgan mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda yana bir muhim qadam bo'ldi.

Iliq va do'stona muhitda o'tgan muloqotda ikki mintaq shaharlarida nafaqat biznes forumlari, balki madaniyat kunlarini o'tkazish masalalari ham ko'rib chiqildi. Yakunda tomonlar ikki hudud munosabatlari har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko'tarish va belgilangan masalalar bo'yicha yaqin hamkorlikni davom ettirishga kelishib oldi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish zarurati

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan Finlyandiya Respublikasi Xelsinki universiteti huzuridagi Qonun ustuvorligi markazi o'rtasida o'zaro Anglashuv memorandumini imzolandi.

Ushbu memorandum doirasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik davlat xizmatchilari hamda jamoatchilik vakillarini korrupsiyaga qarshi o'qitish, jumladan, trening, seminar va anjumanlar tashkil etish, amaliyotlar o'tash, ekspert almashinuvini yo'lga qo'yish belgilangan. Shuningdek, o'quv dasturlari hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalar almashish va ishlab chiqishda hamkorlik qilinadi.

Sun'iy intellekt: muammo va yechimlar

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida "Milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida sun'iy intellektning joriy etilishi: mavjud muammolar va yechimlar" mavzuida konferensiya bo'lib o'tdi.

Anjumanda sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirish istiqbollari, ushbu texnologiyadan iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari va korxonalar ish samaradorligini yaxshilashga qaratilgan aniq loyihalar muhokama qilindi.

Konferensiya so'ngida ishtirokchilar sun'iy intellekt texnologiyalarining ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini aniqladi. Ilg'or texnologiyalardan foydalanish loyihalarini amalga oshirish uchun navbatdagi qadamlar belgilab olindi.

"Xalq so'zi".

GO'ZALLIK VA SAN'AT BAYRAMI

Musiqi va raqs san'atining mashhur namoyandalari kamol topgan, 2024-yilda "Islom dunyosining turizm poytaxti" deb e'tirof etilgan qadimiy va navqiron Xiva yana bir nufuzli xalqaro anjumanga mezbonlik qildi. Gap shundaki, O'zbekiston Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi hamda Xorazm viloyati hokimligi hamkorligida "Lazgi" II xalqaro raqs festivali o'tkazildi.

Festival

Prezidentimizning 2020-yil 28-sentabrda "Lazgi" xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash,

vohaga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar orasida boy madaniy merosimizni keng targ'ib qilish va shu orqali art turizmni rivojlantirish, xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan mazkur san'at bayramida dunyoning 30 ga

yaqin davlatlaridan raqs san'ati ustalari, mamlakatimiz folklor jamoalari qatnashdi. Festival tadbirlarini xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalari keng yoritib bordi.

Tadbir munosabati bilan bayramona bezatilgan Ichan qal'aning qadimiy obidalarini, maydonlari har qachongidan-da go'zal va mafunkor qiyofa kasb etdi. Festival doirasida bu yerda O'zbekiston raqs san'ati fotoko'rgazmasi, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari yarmarkasi tashkil qilindi.



INSONPARVARLIK TAMOYILI VA XALQIMIZ MANFAATLARI ASOSI



Ma'lumki, ya'ni 2023-yil 30-aprel kuni mamlakatimizda o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingandi. Mazkur muhim siyosiy jarayonda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Bosh qomusimizni yoqlab ovoz bergani unda xalqimizning yangi O'zbekistonni barpo qilish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganini ifoda etadi.

Eksklyuziv intervyu

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi raisi Jahongir SHIRINOV bilan suhbatimiz Asosiy Qonunimizning ahamiyati, dasturilamal hujjat asosida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning asosiy maqsad va vazifalari haqida bo'ldi.

— Jahongir Jabborovich, bilamizki har qanday demokratik islohotlar chin ma'noda xalqchil konstitutsiyaviy asosga ega bo'lsagina ko'zlangan ezgu maqsadlarga erishish mumkin bo'ladi. Shu ma'noda aytganda, mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishga qanday zarurat bor edi?

— Darhaqiqat, so'nggi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

manzilli ijtimoiy himoya tizimi yaratildi, iqtisodiyot erkinlashib, xususiy mulk egalari ko'paymoqda. Madaniy hayotimizda, sport sohasida yoshlarimizning yutuqlari kundan-kunga oshyapti, parlamentarizm va sud-huquq sohasida ham demokratik o'zgarishlar qilyapti. Xalqimizning qarashlari tubdan o'zgarib, huquqiy ong yanada yuksalib boryapti. Eng muhimi, davlat organlari ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazorati samarali o'rnatilmoqda.

Shubhasiz, bu sa'y-harakatlar xalqimizning tinch, farovon yashashini ta'minlash, oilalar mustahkamligini kafolatlash, keksalarimizni ulug'lash, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeiini oshirish, navqiron avlod vakillarini har jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.



YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINI HAYOTGA TATBIQ ETISHDA PARLAMENTNING O'RNI VA ROLI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasida "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi: amalga oshirilgan ishlar va ustuvor vazifalar" mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Konferensiya

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Parlament tadqiqotlari instituti hamkorligida o'tkazilgan anjumanda deputatlar, senatorlar, siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari, Konstitutsiyaviy sud sudyalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari, olimlar, jurnalistlar ishtirok etdi.

Konferensiyani Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov kirish so'zi bilan ochib, o'tgan yili 30-aprelda bo'lib o'tgan umumxalq referendumida xalqimiz o'zining yuksak siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashini namoyon etib yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilganini, Prezidentimiz konstitutsiyaviy islohotlarning ham tashabbuskori, ham ilhomlantiruvchisi bo'lganini alohida qayd etdi.

Ta'kidlab o'tilganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan O'zbekistonda yangi ijtimoiy-siyosiy muhit shakllandi, davlat o'ziga ulkan ijtimoiy-iqtisodiy majburiyatlarini oldi, mamlakat o'zini ijtimoiy davlat sifatida e'lon qildi. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari tatbiq etildi. Davlat hokimiyatini tashkil etishning samarali yangi modeli joriy qilindi.

Konstitutsiyamizda muayyan me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingani yoki

qilinmaganidan qat'i nazar, Bosh qomusimiz qoidalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash orqali demokratiya, inson huquqlari va erkinliklarni kafolatlash mexanizmlari mustahkamlandi.

Inson huquqlari va erkinliklariga oid aniq normalar soni uch barobardan ziyod ko'paydi. Fuqarolarning shaxsiy huquqlari keng ko'lamli masalalarni qamrab olgan normalar bilan yanada mustahkamlandi. Fuqarolar qonun loyihasini to'g'ridan-to'g'ri parlamentga kiritish huquqiga ega bo'ldi. Ushbu yangi tashabbus fuqarolarning o'z hayotiga, umuman, jamiyatga va davlatga ta'sir etuvchi qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini oshirishga qaratilgan Spiker tomonidan alohida qayd etildi.

Konferensiyada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari Akmal Saidov so'zga chiqib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda uning mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi, to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi, butun mamlakat hududida yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishga taalluqli konstitutsiyaviy normalar mustahkamlab qo'yilganini alohida ta'kidladi.

Anjumanda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilingan ilk kunlardan oq uni hayotga ichkil tatbiq etishga jiddiy kirishilganiga urg'u berilib, bu bo'yicha ma'ruzalar tinglandi.



O'zbekiston — Janubiy Koreya:

SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA HAMKORLIK KUCHAYTIRILADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva 30-aprel kuni Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasining Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot qo'mitasi raisi Shin Dong Ginni qabul qildi.

Muloqot

Uchrashuvda ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik, parlamentlararo aloqalarning amaldagi holati va istiqbollari, shuningdek, O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida sog'liqni saqlash sohasida birgalikda amalga oshirilayotgan loyihalar hamda rejalar muhokama markazida bo'ldi.

Xususan, mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarni kengaytirish, o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 5 milliard dollarga yetkazish uchun mavjud salohiyatdan foydalanish lozimligi alohida aytib o'tildi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish, xususan, sog'liqni saqlash yo'nalishida yangi loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish, shu jumladan, yangi tibbiyot markazlarini tashkil etish, farmatsevtika klasterlarini ishga tushirish, kadrlar tayyorlash, hududiy tibbiyot muassasalarini ilg'or uskunalar bilan jihozlash yuzasidan fikr almashildi.

Suhbat chog'ida keyingi yillarda parlamentlar o'rtasidagi aloqalar faollashgani,

do'stlik guruhlarining yaqin muloqoti yo'lga qo'yilganiga urg'u berildi. Shu bilan birga, Oliy Majlis Senatida Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi bilan hamkorlik bo'yicha maxsus komissiyaning tuzilgani mamlakatlar rahbariyati tomonidan ikki tomonlama hamkorlikka katta e'tibor qaratilayotganining ifodasi ekani e'tirof etildi. Oliy darajadagi kelishuvlar va qo'shma loyihalarning ushbu komissiya doirasida muhokama qilinishi ularning o'z vaqtida hamda sifatli bajarilishiga ko'mak berayotgani aytib o'tildi.

Muloqot doirasida Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi hamda Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasining Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot qo'mitasi to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yish orqali ona va bola salomatligini ta'minlash, reproduktiv ko'rsatkichlarni yaxshilash, irsiy kasalliklarning oldini olish hamda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari uchun volontyorlarni jalb qilish yo'nalishlarida o'zaro tajriba almashishga kelishib oldi.

"Xalq so'zi".

BOJXONADAGI AYRIM HOLATLAR TADBIRKORLARGA QIYINCHILIK TUG'DIRMOQDA



Oliy Majlis Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining majlisi bo'lib o'tdi.

Unda "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonunning bojxonaga oid huquqbuzarliklarning bevosita predmeti bo'lgan tovarlar hamda boshqa qimmatliklarni ushlab turishga oid qismining Toshkent viloyati va Toshkent shahar bojxona boshqarmalari tasarrufidagi chegara va TIF bojxona postlarida ijoy etilish holatini o'rganish natijalari muhokama qilindi.

Senat qo'mitasida

Qayd etilganidek, fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida Bojxona qo'mitasi tomonidan Bojxona rasmiylashtiruv markazi tashkil etilib, "Masofaviy elektron deklaratsiyalash" posti, "Targetlash", "Ma'lumotlarni qayta ishlash" va Call-markazlari zamonaviy standartlarga mos ravishda jihozlangan.

Boshqarmalar hamda "Toshkent-AERO" IBK tomonidan 2023-yil hamda joriy yil birinchi choragida aniqlangan 850 ta huquqbuzarlik holati bo'yicha qariyb 65 mlrd. so'mlik tovar-moddiy buyuklar sud va tergov organlari qarorlari asosida egalari qaytarilgan.

Shularga mos ravishda bojxona organlari tomonidan tovar-moddiy buyuklarning O'zbekiston Respublikasiga noqonuniy kirib kelishi hamda aylanuvining oldini olish yo'nalishida tizimli ishlar bajarilgan. Jumladan, boshqarmalar va "Toshkent-AERO" IBK tomonidan 2023-yil va joriy yil birinchi choragida 14 146 ta holatda 216,8 mlrd. so'mlik tovarlarning noqonuniy aylanuviga chek qo'yilgan.

Qo'mita yig'ilishida shu kabi yutuqlar bilan bir qatorda sohada ayrim muammo va kamchiliklar mavjudligi ham aytib o'tildi.

Xususan, ayni vaqtda bojxona

to'lovlarini undirish uchun har bir bojxona organining alohida hisob raqamlari mavjud. Bu esa yurtimizning qator hududlarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun noqulaylik va qiyinchilik tug'dirmoqda, ya'ni ular bojxona boshqarmalariga to'lovlarini o'tkazishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Yana bir muammo. Amaldagi normativ hujjatlarda jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun mo'ljallangan biologik faol qo'shimchalarni tegishli ruxsatnomalarsiz olib kirish tartibi va me'yorlari belgilab qo'yilgan. Amaliyotda bu holat turli tushunmovchilikni keltirib chiqarmoqda va fuqarolarning haqli e'tiroziga sabab bo'layotir.

Qolaversa, bojxona organlari tomonidan olib qo'yilgan va ekspertiza xulosasiga ko'ra bevosita foydalanish uchun yaroqli deb topilgan dori vositalarini va tibbiyot buyumlarini tasarruf etish bilan bog'liq huquqiy asoslar hamon mavjud emas. Sud va tegishli organlar qarori bilan egalarga qaytarilgan tovarlarni saqlash, ekspertiza va baholashni o'tkazish hamda transport xarajatlarini qoplash jarayoni tartibga solinmagan.

Bojxona organlari axborot tizimlari orqali qayd etilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqishning soddalashtirilgan elektron tartibi joriy qilingan. Biroq axborot tizimining samarali va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun qo'shimcha mablag'lar ajratilmayapti.

Mamlakatga vaqtincha olib kirilgan transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash bo'yicha samarali mexanizm yaratilmagan.

Bundan tashqari, xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarga qo'yiladigan talab va "xalqaro kuryerlik jo'natmasi" tushunchasi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmagan.

Kuryerlik jo'natmalarini respublika hududiga olib kirish chog'ida ularni bevosita qabul qiluvchi shaxsga tegishli ma'lumotlar kuryerlik tashkilotlariga taqdim etilishi oqibatida keyinchalik bu ma'lumotlardan kuryerlik tashkilotlari tomonidan fuqarolarning ruxsatisiz foydalanish holatlari ham kuzatilmoqda.

Xususan, kuryerlar tomonidan 2022-2023-yillar davomida 200 dan ortiq fuqarolarning shaxsga doir ma'lumotlaridan noqonuniy foydalanilgan. Shulardan kelib chiqib Senat qo'mitasining ushbu kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan aniq takliflari aks etgan qarori qabul qilindi.

Qarordan Bojxona kodeksi hamda bojxona munosabatlarini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjat va havoalarni to'liq xatlovdan o'tkazib, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek, asossiz cheklovlar, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillar va eskirgan tartibga solish mexanizmlari aniqlangan taqdirda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish kabi tavsiyalar o'r in olgan.

"Xalq so'zi".

Seminar

MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI NOTIQ BO'LSA...

Oliy Majlis Senatida mahalliy Kengashlar deputatlarining notiqlik madaniyati va deputatlik etikasini oshirishga yo'naltirilgan o'quv seminari tashkil etildi. Unda senatorlar hamda Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlar mahalliy Kengashlari deputatlari hamda kotibiyati xodimlari, soha olimlari va ekspertlar, OAV vakillari ishtirok etdi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlarining faoliyatida saylovchilar, har qanday jamoa bilan muvaffaqiyatli ishlashda ularning notiqlik san'ati, muloqot madaniyati va kommunikativ kompetensiyasi alohida o'r in tutadi. Shu ma'noda, ularda ana shu jihatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib davlat va jamiyat boshqaruvida deputatlar faolligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Eng avvalo, deputatlarda boshqaruv va yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish, ularning notiqlik madaniyati va deputatlik odob-axloqini kuchaytirishga urg'u berib kelinayotir.

Seminarda alohida aytib o'tilganidek, har bir xalq vakili o'zining ilmga va qadriyatlarimizga asoslangan notiqlik va muloqot madaniyatini hamda deputatlik etikasini doimiy oshirib borishi talab etiladi. Zero, deputat nafaqat o'z faoliyati bilan bog'liq ishlarni bajaradi, balki mamlakat, viloyat, tuman yoki shahar miqyosida olib borilayotgan bugungi va istiqbolida nazarda tutilayotgan keng qamrovli islohotlarning mazmun-mohiyati haqida tushuntirishlar berib boradi. Bu jarayonlarda deputatning nutq madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, odamlarning islohotlarga munosabati va daxldorlik hissi shunchalik mustahkam bo'lib boraveradi.

Tadbirida olimlar va professor-o'qituvchilar har bir deputatning notiqlik mahoratini oshirishda qo'l keladigan omillar xususida batafsil to'xtalib o'tdilar. Jumladan, mutaxassislar notiqlik san'ati turlariga e'tibor qaratib, notiq nutqining to'g'ri va aniqligiga, so'zlarning mantiqiy ketma-ketlikda, sodda, qisqa va ta'sirchanligiga urg'u berish kerakligi, nutq texnikasiga amal qilgan holda ovoznining jarangdorligini ta'minlash hamda tinglovchilarning diqqatini o'ziga jalb etish sirlari xususida ma'lumotlar berdi.

"Xalq so'zi".

Senator va hayot

HECH BIR MUROJAAT E'TIBORDAN CHETDA EMAS

Xabaringiz bor, Oliy Majlis Senati a'zolari qonunchilik va parlament nazorati faoliyatidan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga ham alohida e'tibor qaratib keladi.

O'tgan haftaning o'zida parlament yuqori palatasiga jami yuborilgan murojaatlar soni 323 tani tashkil etdi. Ularning 162 tasi elektron shaklda, 161 tasi yozma ravishda kelib tushgan. Bundan tashqari, Senatning fuqarolar qabulxonasida 137 nafar shaxs qabul qilindi.

E'tiborli jihati, aholi murojaatlari senatorlar tomonidan vazirlik hamda idoralar vakillari ishtirokida joyida tekzor ko'rib chiqiladi va nazoratga olinadi.

Masalan, Oliy Majlis Senatiga Xorazm viloyati, Tuproqqal'a tumanida yashovchi 1-guruh nogironi X. Rajabov tomonidan murojaat kelib tushgan edi.

Fuqaro o'z murojaatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Tuproqqal'a tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga ishga kirish uchun "argos.uz" sayti orqali hujjatlarini topshirganini ma'lum qilib, Oliy Majlis Senatidan qabul bo'yicha tanlov shaffof va adolatl o'tishini ta'minlashda amaliy yordam so'ragan.

Ushbu murojaat Senatning Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan o'rganib chiqildi.

Natijada nogironligi bo'lgan shaxslar uchun Tuproqqal'a tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazida ijtimoiy xizmatlarni tashkillashtirish bo'yicha mutaxassis (operator) lavozimi bo'yicha e'lon qilingan ochiq tanlov shaffof va adolatl o'tishi ta'minlandi.

Fuqaro X. Rajabov tanlovdan muvaffaqiyatli o'tib, viloyat boshqarmasi boshlig'i buyrug'iga asosan mutaxassis lavozimiga ishga qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

NOSHIRLIK VA MATBAACHILIK FAOLIYATIDAN AHOLI ROZIMI?

Kecha Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Oliy Majlis Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasining majlisi bo'lib o'tdi.

Senatorlar, qo'mita ekspertlari, tegishli davlat organlari va tashkilotlari mas'ullari, jamoatchilik vakillari ishtirok etgan tadbirida "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning ijrosi, qonunchilikdagi bo'shliqlar va amaliyotdagi muammolar muhokama qilindi.

Qonun va ijro

Ta'kidlanganidek, noshirlik va matbaa sohasini rivojlantirish, ular faoliyatini tartibga solish, kitobxonlikni yanada ommalashtirish yo'nalishida 10 ta me'yoriy-huquqiy hujjat, shu jumladan, bitta qonun, Prezidentning uchta qarori, Hukumatning oltita qarori va farmoyishi, shuningdek, 29 ta davlat standarti qabul qilingan. Bugungi kunda mamlakatda 530 dan ortiq nashriyotlar faoliyat ko'rsatmoqda, matbaa korxonalari esa 1931 tani tashkil etadi. E'tiborlisi, noshirlik sohasidagi tadbirkorlik sub'yektlari soni 2020-yildagiga nisbatan qariyb 3,5 barobarga, ya'ni 364 taga oshgan. Nashriyotlarning 59 tasi davlat ulushiga ega, qolgan 473 tasi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi.

O'rganish va tahlillarga

ko'ra nashriyotlar tomonidan 2022-2023-yillar davomida yiliga o'racha 7,5 ming nomda jami 35, 8 million nusxada turli adabiyotlar nashr etilgan.

Ishtirokchilar aytganidek, matbaa sohasini va bosma mahsulotlar bozorini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida mavjud korxonalar faoliyati texnologik jihatdan modernizatsiya qilingan. Matbaa korxonalari tomonidan umumiy qiymati 25,2 mln. AQSh dollariga teng jami 825 ta matbaa uskunasi olib kelib o'rnatilgan.

Majlisda mazkur tarmoqda tizimli muammolar, muayyan kamchiliklar borligiga ham e'tibor qaratildi.

O'rganish va tahlillarga ko'ra yuridik shaxslar muassisligida tashkil etilayotgan

ayrim nashriyotlarda kitob mahsulotlarini tayyorlash jarayonida tahriyat faoliyatini yo'lga qo'yish bilan bog'liq majburiyatlar yo'qligi sababli qonunbuzilish holatlari ko'paygan. Masalan, hisobot davrida 293 nomdagi kitob mahsulotlarida qonunbuzilish holatlari aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan 37 ta nashriyot rahbarlari va muassislariga 46 ta taqdimnoma, ya'ni ko'rsatma va ogohlantirish xati kiritilgan.

Bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan asarlarni yaratish bo'yicha ijtimoiy buyurtmalarni shakllantirish, yozuvchi va shoirlar faoliyatini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashning samarali tizimi yo'lga qo'yilmagan.

Qolaversa, bugungi kunda nashriyotlar, internet saytlari va boshqa foydalanuvchilar tomonidan asar mualliflarining (merosxo'r) ruxsatisiz ular asarlaridan ochiqdan-ochiq foydalanish holatlari odatiy tusga aylanib bormoqda. Oqibatda tadbirkorlik subyektlari tomonidan yashirin daromad olish va mualliflik huquqi egalari haq to'lamaslik holatlari ortib, ularning yangi asarlar yaratish borasidagi ijodiy

faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotir.

Tahlillarning ko'rsatishicha, 111 ta holatda 162,7 mln. so'mlik matbaa mahsulotlari ashyoviy dalil sifatida olinib, nashriyotlar tomonidan mualliflik huquqlariga rioya etmasdan kitob nashr etish bo'yicha 11 ta holatda ma'muriy va fuqarolik sudlari tomonidan jami 472 mln. so'm mablag' jarima sifatida mualliflar foydasiga undirilgan.

Shu bilan birga, noshirlik va matbaa sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish, xususan, kontrafakt va standart talablariga javob bermaydigan matbaa mahsulotlari aylanmasi bilan bog'liq huquqbuzarlik yuzasidan ma'muriy chora qo'llash mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Bundan tashqari, tumanlar, qishloqlar va chekka hududlarda kitob mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazib berish va sotishga ixtisoslashtirilgan do'konlar yetarli emasligi aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitobxonlikning ommalashishiga to'sqinlik qilib kelyapti.

Majlisda mamlakat hududiga milliy qadriyatlar, aholi mentalitetiga to'g'ri kelmaydigan, bolalar

va o'smirlar ongiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan noshirlik va matbaa mahsulotlarining kirib kelishiga chek qo'yish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligi borasida ham fikr-mulohazalar bildirildi.

Muhokamadan so'ng tegishli vazirlik va idoralarga sohadagi qonunchilikni takomillashtirish, kontrafakt va standart talablariga javob bermaydigan matbaa mahsulotlariga qarshi kurashish, ushbu yo'nalishda mualliflar huquqlarini himoyalash bo'yicha takliflar bildirildi. Ayni chog'da yurtimizga milliy qadriyatlar, aholi mentalitetiga mos kelmaydigan, bolalar va o'smirlar ongiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan noshirlik va matbaa mahsulotlari kirib kelishiga chek qo'yish, kitobxonlik targ'iboti borasidagi ishlarni kuchaytirish va huquqbuzarlik holatlarini aniqlashda tashabbuskorlikni oshirish yuzasidan aniq tavsiyalar berildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

MULKDOR VA ZAMON

SHAHARISABZ SANOATLASHGAN HUDUDGA AYLANMOQDA

Shahrisabz tumanining aksariyat hududi tog' va adirlıklardan iborat. Suvi zilol, iqlim sharoiti bog'dorchilik, sabzavotchilik uchun qulay. Shu bois ham tuman aholisi, asosan, dehqonchilikdagi yutuqlari bilan nom qozongan.

Biroq so'nggi yillarda tumanda sanoat ishlab chiqarishi ham jadal rivojlanmoqda. Masalan, bundan o'n yil avval tumanda sanoat korxonalari yuztaga ham yetmagan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 243 tani tashkil qiladi. Ular to'qimachilik mahsulotlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, mebelsozlik, oziq-ovqat sanoati va shu kabi o'nlab tarmoqlarni qamrab olgan.

"Vulqon elektron sanoat qurilish" mas'uliyati cheklangan jamiyati hududdagi yirik tadbirkorlik subyektlaridan biri hisoblanadi. Korxona dastlab qurilish-pudrat ishlari bilan faoliyat boshlagan bo'lsa, bugungi kunga kelib ishlab chiqarish sanoatida ham salmoqli yutuqlarga erishmoqda.



Tadbirkorlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar bizni ham yangi-yangi tashabbuslarga ruhlantirmoqda, — deydi korxona rahbari Sanjar Ismoilov. — Ikki yil avval plastik quvurlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha tuman hokimligiga murojaat qilgandik. Hokimlik tomonidan loyihamiz qo'llab-quvvatlanib, ishlab chiqarish obyekti barpo etish uchun hududdagi kichik sanoat zonasidan 35 sotix yer maydoni ajratib berildi. Natijada qisqa vaqt ichida bu yerga zarur inshootlarni keltirib, eng zamonaviy texnologiyalar asosida plastik

quvurlar ishlab chiqarish liniyasini ishga tushirdik.

Ayni paytda korxonada 15 xildan ortiq o'lchamdagi plastik quvurlar ishlab chiqarilmoqda. Bu faoliyat ortidan esa hududdagi 17 nafar kishining doimiy ish bilan bandligi ta'minlangan.

Ta'kidlash joizki, shahrisabzlik tadbirkorlar, ayniqsa, meva-sabzavotni qayta ishlash, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish kabi sohalarda faollik ko'rsatmoqda. "Fatxiddin Azizov" xususiy korxonasi ham ayni shu sohada bir qator loyihalarni amalga oshirgan.

— 2021-yilda yaxna ichimliklar ishlab chiqarish bilan faoliyat boshlagan edik, — deydi korxona rahbari Kamoliddin Nabiyev. — Dastlabki loyihamiz yaxshi samara bergach o'tgan yili toza ichimlik suvi ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan yana bir zamonaviy texnologiyani ishga tushirdik. Bu yerda ichimlik suvi bir necha bosqichda tozalanib, boyitilib, so'ng qadoqlangan holda ichki bozorga yetkazib beriladi.

Shuningdek, o'tgan yili korxona tasarrufida osh tuzini qadoqlash liniyasi ham ishga tushirildi.

— Bu yerda osh tuzi bir necha bosqichda tozalanib, yod bilan boyitilgan holda qadoqlanadi, — deydi Kamoliddin



Nabiyev. — Natijada yana 6 nafar kishining doimiy ish bilan bandligini ta'minladik.

Tadbirkor Ma'ruf Umarov esa joriy yilda "Kesh Star" xususiy korxonasini ta'is etib, milliy shirinliklar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi.

— Ayni paytda holva hamda novvot ishlab chiqaryapmiz, — deydi u. — Mahsulotimiz qisqa vaqt ichida ichki bozorda o'z o'rniga ega bo'lib ulgurdi,

mijozlar ishonchini qozondik. Oilamizning to'rt nafar a'zosi shu faoliyat bilan band, oyiga 5-6 million so'm atrofida daromad o'layapmiz. Mijozlarimiz soni kundan-kunga oshib borayotir. Bu esa yaqin vaqt ichida ishlab chiqarish salohiyati ham, daromadimiz ham ortishidan darak beradi.

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati "O'zbekistonda «yashil» xususiy sektorni rivojlantirish» yangi yirik loyihasini ishga tushirdi.

YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINI HAYOTGA TATBIQ ETISHDA PARLAMENTNING O‘RNI VA ROLI



Ma'lum qilinganidek, Prezidentimizning tegishli Farmoni asosida Asosiy Qonunimizni amalga oshirish bo'yicha davlat komissiyasi tashkil etildi, 5 ta ekspertlik kengashi tuzildi. Oliy Majlis palatalari tomonidan 38 banddan iborat Konstitutsiya mohiyatini tushuntirish bo'yicha kompleks dastur qabul qilindi. Asosiy Qonunimiz 377 ming nusxada (o'zbek, qoraqalpoq, rus

va ingliz tillarida) chop etilib, 99 ta vazirlik va idora, ularning tizim va hududiy tashkilotlariga tarqatildi. "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi" yagona milliy portali "konstitutsiya.gov.uz" va uning mobil ilovasi ishga tushirildi.

Parlament, sud va ijro hokimiyati, joylarda hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari yangicha konstitutsiyaviy sharoitda ish boshladi. Umuman, barcha

davlat organlari Bosh qomusimiz har bir qoidasining to'liq, sifatlari va so'zsiz bajarilishiga mas'ulligi asosiy mezon etib belgilandi.

Oliy Majlis tomonidan 100 ga yaqin qonunlarni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish bo'yicha dastur tasdiqlandi. Sudlar tomonidan konstitutsiyaviy normalarni to'g'ridan-to'g'ri va bir xilda qo'llash bo'yicha Oliy sud Plenumi qarori qabul qilindi. O'tgan

bir yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan Konstitutsiyani to'g'ridan-to'g'ri qo'llab chiqarilgan sud qarorlari 749 taga yetdi.

Anjumanda aytilganidek, o'tgan davrda milliy qonunchilik bazasini tashkil etuvchi 30 mingdan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari to'liq xatlovdan o'tkazildi. Huquqiy ta'sir choralarini mutanosiblik prinsipiga moslashtirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilmog'da. Inson

bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi ko'zda tutildi.

O'zbekistonning demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatni rivojlantirish konsepsiyalari loyihalari tayyorlandi. Prinsipial ahamiyatga ega 50 ga yaqin muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.



Parlamentning demokratik qiyofasi tubdan o'zgardi. Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari kengaydi. Parlament nazoratini

amalga oshirishning huquqiy asoslari, qonunchilik takliflarini ilgari surish tartibi, qonunlarni qabul qilish jarayoni takomillashti. Siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlarining maqomi oshdi. Oliy Majlis palatalari va mahalliy Kengashlar deputatlari korpusini shakllantirishning yangi tartibi ishlab chiqildi.

Konferensiyada siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari, deputatlar, senatorlar, olimlar so'zga chiqib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ahamiyatiga to'xtalib o'tdilar.

Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani izchil amalga oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar atroflicha muhokama qilindi. Uning mazmuni har bir davlat xizmatchisining kundalik faoliyatida, insonlar hayotida aniq aks etishi zarurligi aytili. Mazkur jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini kengaytirishga kelishib olindi.

Ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari tomonidan aniq taklif hamda tavsiyalar bildirildi.

«Xalq soʻzi».

Soʻz — konferensiya ishtirokchilariga

Inomjon QUDRATOV,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasi uchun, birinchi galda, sudlar mustaqilligini ta'minlash va shu maqsadda sudyalarning xalq deputatlari Kengashlariga axborot berish amaliyotini bekor qilish taklifi ilgari surilib, uning qabul qilinishiga erishilgani e'tiborga molik.

Barchamizga ma'lumki, sudyalарimiz xalq deputatlari Kengashlarida mutamam ravishda o'z faoliyatiga oid bergan axborotlari davomida sud qarorlari, ayrim paytlarda esa hali yurituvda bo'lgan va nihoyasiga yetmagan ishlar bo'yicha savol-javob qilishga majbur bo'lishardi. Bu bugun biz mustaqil deb atayotgan sudlar faoliyatiga aralashishga olib kelishi mumkin edi.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 130-moddasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritishi, 136-moddasida esa sudyalari hisobdor bo'lmagligi qat'iy qilib belgilani, ularning faoliyatiga aralashish omillari bartaraf etildi.

Ayni chog'da hali sud-huquq sohasida qiladigan

ishlarimiz juda ko'pligini ta'kidlash lozim. Jumladan, sudyalarning ixtisoslashuvini yanada kengaytirish hali-hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu boradagi islohotlarni amalga oshirishda Asosiy Qonunimiz muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Akrom TOSHPOLATOV,

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi

Parlament tadqiqotlari instituti direktori:

— Parlamentning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlardagi ishtiroki, hech shubhasiz, uning faoliyatini ilmiy, axborot-tahliliy jihatdan ta'minlashga bevosita bog'liqdir. Bu esa Qonunchilik palatasi va deputatlar faoliyatini axborot-tahliliy jihatdan ta'minlashni mutlaqo yangi tizim asosida olib borishni taqozo etadi.

Shu bois o'tgan yili Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti negizida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti tashkil qilindi. O'tgan qisqa fursatda taqdim etilgan qonun loyihalarini yuzasidan ilmiy xulosa, axborot-tahliliy va boshqa materiallarning soni 150 tadan oshdi. Xususan, institut tomonidan Qonun ijodkorligi faoliyati dasturi

Akmal RAHMONOV,

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi

sudyasi:

— Mamlakatimiz taraqqiyoti, ertangi kuni qanday bo'lishi, aholi farovonligi, yashash darajasi oshishi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ruhiga qanchalik tayanishimiz, uning ijtimoiy-huquqiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishimizga, normalarini chuqur o'rganishimiz negizida uning talab va prinsiplarini bevosita qo'llash hamda rioya qilishimizga ko'p jihatdan bog'liq.

Qonunchilik palatasida tashkil etilgan anjumanda bu haqda o'z fikr-mulohazalarimizni bildirib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni belgilab oldik. Jumladan, Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash mexanizmlarini izlash va tadqiq qilish, amaldagi qonunchilikka Bosh qomusimiz norma va prinsiplarini

yanada to'liq singdirib borish, fuqarolarda Konstitutsiyaga hurmat, uning qoidalariga og'ishmay rioya qilish madaniyatini shakllantirish masalalariga e'tibor qaratish Asosiy Qonunimizni hayotga tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Bekzod NARIMONOV,

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili

(ombudsman) o'rinbosari:

— Quvonarlisi, yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda Ombudsmanning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi. Xususan, 56-moddada inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar maqomi va kafolatlari belgilangan bo'lsa, 98-moddada Ombudsman instituti qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli ekanligi mustahkamlandi.

Asosiy Qonunimizni so'zsiz va to'liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni izchil ro'yobga chiqarish va jamiyatimizning har bir a'zosi Konstitutsiya bilan kafolatlangan huquq va erkinliklarni o'z hayotida yaqqol his etib turishi uchun Ombudsman parlament instituti sifatida barcha kuch, salohiyat va sa'y-harakatlarini safarbar etadi.

INSONPARVARLIK TAMOYILI VA XALQIMIZ MANFAATLARI ASOSI



Eng muhimi, Prezidentimiz rahbarligida so'nggi yillarda ro'yobga chiqarilayotgan hayotiy tashabbuslar samarasida bugun yangi O'zbekiston demokratik tamoyillar, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan, asosiy maqsadi xalq uchun erkin, obod hamda farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatga aylandi.

Xalqparvar davlatni barpo etish yo'lidagi muhim vazifalarni amalga oshirish uchun esa Konstitutsiya va qonunlarimiz zamondan orqada qolib ketmasligi kerak edi. Zero, Bosh qomusimiz bugungi real voqelikka mos bo'lsagina, u shiddat bilan olib borilayotgan islohotlarimizning huquqiy asosi bo'lib xizmat qila oladi.

Aynan shuning uchun ham yurtimizda konstitutsiyaviy islohotlar olib borildi. Bu borada maxsus Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Bevosita xalqimizning takliflari asosida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi tayyorlangan edi.

Xabaringiz bor, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ustida qizg'in ish olib borildi. Bu borada aholidan 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushganligining o'zi ham konstitutsiyaviy islohotlardan xalqimiz katta o'zgarishlar kutganligidan dalolat beradi.

Shu ma'noda, o'tgan yilning 30-aprel kuni O'zbekiston tarixiga muhim sana sifatida kirdi. Shu kuni mamlakat taqdiri va ertangi kunini belgilab beradigan Bosh qomusimiz — Konstitutsiyamizning yangi tahriri bevosita xalqimizning irodasi asosida, umumxalq ovozi, referendum yo'li bilan qabul qilindi.

— **Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning asosiy g'oyasi haqida to'xtalib o'tsangiz. Unda insonparvarlik tamoyili qay darajada aks ettirildi?**

— Bugun mamlakatimizda inson qadr-qimmat, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash g'oyasi davlatimiz siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois yangilangan Konstitutsiyamizda ilgari amal qilib kelgan "davlat — jamiyat — inson" tamoyilini "inson — jamiyat — davlat" deb o'zgartirish, ya'ni inson manfaatini har narsadan ustun qo'yish g'oyasi maqsad qilindi va bunga erishildi. Bunda eng muhim jihatlarni e'tirof etish lozim.

Eng avvalo, O'zbekiston ijtimoiy davlat, deb e'lon qilindi. Sir emaski, "ijtimoiy davlat" deganda, avvalo, o'z fuqarolariga muayyan minimal farovonlikni kafolatlaydigan davlat tushuniladi. Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadi — har bir fuqaroga g'amxo'rlik qilish, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlamlari uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashdan iborat.

Shulardan kelib chiqib, davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalari qariyb



tomonidan qo'llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi qoidalar kiritildi. Xususan, davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoit yaratishi, ularning ishga joylashishi, ta'lim olishiga ko'maklashishi, zarur axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlashi mustahkamlandi.

Yana bir muhim jihat — ijtimoiy davlatga xos yondashuv ta'lim sohasi bo'yicha ham ko'pgina moddalarda o'z ifodasini topdi. Jumladan, yoshlarning oliyog'ohlarda davlat hisobidan grant asosida o'qish huquqi Konstitutsiyada belgilandi. Bu — oliy ta'limda hamisha davlat granti uchun kvotalar ajratiladi, degani.

Shu bilan birga, nogironligi bor bolalarga o'z tengdoshlari bilan bir xil ta'lim olishi uchun sharoitlar yaratish, ya'ni inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat o'ziga majburiyat oldi.

Albatta, bularning barchasi Asosiy Qonunimiz muqaddimasida belgilanganidek, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanishini kafolatlaydi.

— **"Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash — davlatning oliy maqsadidir" degan norma dasturilamal hujjatda alohida belgilandi. Aytgich, bu nimani anglatadi va mazkur mexanizm qanday ishlaydi?**

— Albatta, bu juda muhim norma bo'ldi. E'tibor beradigan bo'lsak, insonning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi belgilandi. Bu juda katta kafolat! Masalan, aytaylik, soliq qonunchiligida bir-biriga nomuvofiq bo'lgan normalar vujudga keldi. Bunday nomuvofqlikni, tabiiyki, soliq organi davlat foydasiga, fuqaro esa o'z foydasiga talqin qilishni xohlaydi. Konstitutsiyaga

kiritilgan mazkur kafolat esa bunday bahsga nuqta qo'yadi va nomuvofqliklar davlatga emas, balki inson foydasiga hal etiladi, deb qat'iy belgilandi.

Bundan tashqari, aybsizlik prezumpsiyasi yanada kuchaytirildi. Jumladan, avvalgi Konstitutsiyamizning 26-moddasida shaxsning ishi sudda ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligi belgilangan bo'lsa, endilikda sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha u aybsiz hisoblanishi mustahkamlandi.

Ahamiyatli tomoni, yangi tahrirdagi Konstitutsiya to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan hujjat bo'ldi. Ya'ni endi fuqarolar, hattoki, o'zining kundalik hayotida ham Asosiy Qonunimizga murojaat qiladilar.

Shu o'rinda "Xabeas korpus" instituti haqida to'xtalish joiz. Ushbu institut ko'larni yanada kengaytirish maqsadida Bosh qomusimizda shaxsni 48 soatdan ortiq sudning qarorisiz ushlab turish mumkin emasligi, telefon so'zlashuvlarini eshitishga va tintuv o'tkazishga faqat sud ruxsat bersagina amalga oshirilishi mumkinligi belgilandi.

Shu bilan birga, ushlangan shaxsga sukut saqlash va boshqa huquqlari hamda ushlab turish asoslari sodda tilda ilk soniyalardananoq tushuntirilishi, ayni chog'da hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi ko'rsatma berishga majbur emasligi kabi "Miranda" qoidalarini Konstitutsiya darajasida belgilandi. Bu qoidalar insonni nohaq jinoyi ta'qibdan himoya qiladi. Ushbu qoidalar faqatgina sohaviy qonunlarda emas, balki aynan eng oliy hujjat — Konstitutsiyada belgilandi.

Inson huquqlarini himoya qilishda advokatlarining rolini oshirishga qaratilgan normalar ham kiritildi. E'tibor beradigan bo'lsak, prokuraturaga oid konstitutsiyaviy normalar qanday alohida bobda aks ettirilgan bo'lsa, xuddi shunday yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga advokaturaga bag'ishlangan yangi bob kiritildi.

Bu kabi huquqiy islohotlar inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi ekanini, shubhasiz, namoyon etadi.

— **Asosiy Qonunimizda yana qanday dolzarb masalalarga e'tibor qaratildi? Shu haqda ham to'xtalib o'tsangiz.**

— Dasturilamal hujjatda bugungi kunimizning eng dolzarb muammolaridan biri — ekologiya masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish majburiyatini oldi.

Shuningdek, yoshlarimiz masalasiga ham ahamiyat qaratilib, ularning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish — davlatning konstitutsiyaviy majburiyati ekanligi belgilandi.

Ochiqlik siyosatini davom ettirish, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan normalar kiritildi. Xususan, milliy qonunchiligimizda birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlarining tarkibi ochib berildi hamda ular fuqarolik jamiyatining asosini tashkil qilishi mustahkamlandi. Davlat budjetini shakllantirish va uni ijro etish ustidan fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan jamoatchilik nazorati olib borilishi haqida yangi modda kiritildi.

Bundan tashqari, davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlashi, shuningdek, ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi mustahkamlandi.

Fuqarolarga, ularning soni yuz ming nafardan kam bo'lmasa, qonunchilikka oid takliflarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi tartibida kiritish huquqi berildi. Bosh qomusimizga bunday qoidaning kiritilishi davlat ishlari boshqarishda fuqarolar ishtirokini kengaytiradi.

Milliy iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatda investitsiyasini muhitni yaxshilash hamda mulk himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan normalar ham kiritildi. Jumladan, nafaqat bank omonatlari, balki bank amaliyotlari va hisobvaraqlarning ham sir tutilishi kafolatlandi. Soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi o'rnatildi.

Eng muhimi, tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga haqli ekanligi kafolatlandi. Konstitutsiyamizga mazkur qoidaning kiritilishi erkin bozor iqtisodiyotining eng muhim talabini o'zida ifoda etib, "qonunda taqiqlanmagan har qanday faoliyatga ruxsat beriladi" degan tamoyilga asoslandi.

Odil sudlovga erishish darajasini oshirish va sudyalari mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan qoidalarining kiritilgani e'tiborga molik. Masalan, sudlar faoliyatini moliyalashtirish faqat Davlat budjetidan amalga oshirilishini kafolatlovchi yangi modda kiritildi. Bu sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

— **Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish va bugungi kun talablariga moslashtirish masalalari qanday aks etdi?**

— *Birinchidan*, parlament vakolatlari kuchaytirildi. Bunda Qonunchilik palatasi bilan Senatning birgalikdagi vakolatlari, har bir palataning alohida-alohida vakolatlari va mas'uliyat sohalarini aniq belgilab berildi. Xususan, Davlat budjeti ijrosini nazorat qilish, Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish kabi vakolatlarga bevosita xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanadigan Qonunchilik palatasiga o'tkazildi. Bu

o'zgartish quyi palataning vakillik tabiatiga mos keladi.

Yana bir muhim masala. Amaldagi tartibga ko'ra, Bosh vazir nomzodini ilgari surish faqat Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p ovoz olgan partiya irodasiga bog'lab qo'yilgan edi. Yangi tartib orqali esa Bosh vazir nomzodi davlatimiz rahbari tomonidan barcha siyosiy partiyalar bilan maslahatlashuvlar o'tkazilgandan so'ng taqdim etildi. Bunda barcha siyosiy partiyalar fraksiyalarining Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqishdagi ishtiroki ta'minlandi.

Parlamentning nazorat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlarini lavozimga qo'yish borasidagi fraksiyalari kuchaytirildi hamda Prezidentning ayrim vakolatlari parlamentga o'tkazildi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Bosh prokuror, Hisob palatasi rahbarligiga nomzodlar avval Senatda ko'rib chiqilib, keyin Prezident tomonidan tayinlanishi, shuningdek, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi va Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarlari Senat tomonidan saylanishi belgilandi.

Ushbu yo'nalishdagi yana bir konseptual o'zgarishlardan biri — bu ma'muriy islohotlardan kelib chiqib, Senat tarkibini ixchamlashtirish orqali uning faoliyat samaradorligini oshirish bo'ldi. Shu maqsadda senatorlar soni amaldagi 100 tadan 65 taga o'zgardi. Bunda Senatni shakllantirishning amaldagi tartibi saqlanib qolindi.

Ikkinchidan, Konstitutsiyaga ko'ra, mahalliy davlat hokimiyati organlarida hokimlarning xalq deputatlari Kengashlariga rahbarlik qilish amaliyoti tugatilib, Kengashlarga hokimdan mustaqil bo'lgan alohida Kengash raisi rahbarlik qilishi belgilandi.

Fuqarolarning saylov huquqidan foydalanish masalasi, aytish mumkinki, inqilobiy yangilik bo'ldi. Ya'ni endilikda qonunlarimizda saylash huquqi cheklangan shaxslar ro'yxati bo'lmaydi. Faqatgina sud tomonidan muomalaga layoqatsiz, deb topilgan fuqarolar, shuningdek, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqlardan faqat qonunga muvofiq qandam sudning qarori asosida mahrum qilinishi mumkin. Ya'ni yuqorida sanab o'tilgan shaxslar, ularning saylash huquqi sudning qarori bilan cheklangan bo'lsagina ular saylovda ishtirok eta olishmaydi, boshqa har qanday vaqtda ular ham saylash huquqiga ega bo'ladi.

Umuman aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarimiz markaziga, avvalo, inson qadriini qo'yadi hamda jamiyatni yanada taraqqiy ettirishga, fuqarolarning huquq va erkinliklari

hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli ta'minlashga xizmat qiladi.

— **Bosh qomusimizning yangi tahrirda qabul qilinganiga ham mana, bir yil to'ldi. Aytgich, shu o'tgan vaqt ichida uni hayotga tatbiq etish borasida qanday ishlar amalga oshirildi? Bunda parlamentning o'rni va roli qanday bo'lmoqda?**

— Shu o'rinda, eng avvalo, davlatimiz rahbarining 2023-yil 8-mayda "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganini alohida qayd etish joiz. Unda Asosiy Qonunimizni so'zsiz va to'liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Mazkur Farmon bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta'minlashda parlament, jumladan, Qonunchilik palatasi tomonidan muayyan ishlar olib borilayotir. Xususan, o'tgan yilning oktabr oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bir guruh deputatlar tashabbusi bilan majoritar proporsional shakliga asoslangan saylov tizimiga o'tishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqilib, keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi va qabul qilindi. Bu, aytish mumkinki, yangi konstitutsiyaviy normalar sohani tartibga soluvchi maxsus qonunlarda ham o'z aksini topayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, bolaning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'liq rivojlanishi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida"gi Qonun chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, qisqa muddatda qabul qilindi. Ayni paytda mazkur qonun bolalar huquq va manfaatlarini kafolatlashga oid konstitutsiyaviy normalarni hayotga samarali tatbiq etishda muhim asos bo'lmoqda. Eng ahamiyatlisi, mamlakatimizda Bolalar ombudsmani yangi instituti joriy etilib, uning faoliyati huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Bundan tashqari, deputatlar korpusi har o'nying oxirgi haftasida joylarda bo'lib, saylovchilar bilan uchrashuvlarda yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aks etgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat prinsiplarini, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng tushuntirmoqda.

Albatta, bu sa'y-harakatlar Asosiy Qonunimizni so'zsiz va to'liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni yangi O'zbekiston ulug'vor g'oyasiga hamohang tarzda ro'yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yish, fuqarolar o'z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his qilib turishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ziyoda ASHUROVA ("Xalq so'zi") suhbatlashdi.

YER YUZINING SAYQALI SAMARQAND – UNESCO KONFERENSIYASI UCHUN MUNOSIB SHAHAR



1 Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi, BMTning cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha konvensiyasi Sharh qo'mitasining 21-yig'ilishi va BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlash bo'yicha konvensiyasi ishtirokchilari konferensiyasi 14-yig'ilishi shular jumlasidan. Avvalroq esa "Boqiy shahar"da Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiya davlatlar tashkiloti va boshqa nufuzli tuzilmalarning sammitlari o'tkazilgan edi.

UNESCOning O'zbekistonda o'z sessiyasini o'tkazishi, *birinchidan*, mamlakatimizga, uning ochiqlik va pragmatizmga asoslangan siyosatiga ishonch yanada ortganidan, nufuzi yanada yuksalayotganidan dalolat beradi. *Ikkinchidan*, jahon hamjamiyati e'tiborini O'zbekistonning madaniy boyliklarini asrab-ayaylashga qaratishga, fan, ta'lim, madaniyat sohasini yuksaltirishga moliyaviy resurslarni safarbar etishga ko'maklashadi. *Uchinchidan*, Samarqandning jahon sayyohlik tizimidagi imkoniyatlarini mustahkamlaydi. Axir jahon sivilizatsiyalari chorrahasida joylashgan bu betakror shahar asrlar mobaynida Sharq va G'arbni o'zaro bog'laydigan, savdo, ilm-fan va madaniyatning chinakam markazi bo'lib kelgan.

Ko'hna Rimga tengdosh bo'lgan ushbu boqiy zamin ulkan saltanatlar poytaxti, ulug' alloma va mutafakkirlar, aziz-avliyo zotlar kamol topgan yurt sifatida bizga hamisha g'urur bag'ishlaydi. "Yer yuzining sayqali" deya shuhrat qozongan, Sharqning ikki buyuk Uyg'onish davri rivojiga ulkan hissa qo'shgan Samarqand bugungi kunda jahonning zamonaviy sayyohlik markazlaridan biriga aylanib bormoqda.

Samarqandning tarixiy uchrashuv joyi sifatida tanlanishida ham chuqur ma'no bor. Chunki bu shahar azaldan tarixiy uchrashuvlar va muloqotlar manzili, madaniy-gumanitar aloqalarni, xalqaro savdoni rivojlantirish, yaxshi qo'shnihilikni mustahkamlash ko'prigi bo'lib kelgan.

Bugungi kunda UNESCO dunyo hamjamiyati bilan insoniyat yashash tarzi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faoliyatini yanada yaxshilash, barqaror hayotni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami loyihalarni amalga oshirib kelmog'da.

Davlatimiz rahbari 2018-yil oktabr oyida Fransiyaga rasmiy tashrifi doirasida UNESCO bosh direktori Odri Azule bilan uchrashib, tashkilot bilan hamkorlik istiqbollari muhokama etgan, ushbu uchrashuv samarasi o'laroq O'zbekiston bilan UNESCO o'rtasida 2018 — 2021-yilgacha mo'ljallangan qo'shma Harakatlar rejasini qabul qilgan edi. Bu

bilan amalga oshirilayotgan ishlarni yanada faollashtirishga zamin yaratildi.

UNESCO bosh direktori O'zbekiston Prezidentining ushbu tashkilot shafeligida tinchlik va bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish, ekstremizmning oldini olish maqsadida Samarqand shahrida Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro institut tashkil etish, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzurida Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha mintaqaviy markaz hamda Samarqanddagi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida UNESCO kafedrasini tuzish bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatladi.

2022-yil 15-noyabrda Toshkentda o'tgan Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha Butunjahon konferensiyasi doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev UNESCO bosh direktori Odri Azule bilan yana bir bor uchrashuv o'tkazdi. O'zbekiston bilan BMT tizimidagi ushbu nufuzli institut o'rtasidagi konstruktiv va samarali hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlarini muhokama qilindi.

Aytish joizki, mamlakat dasturi va qabul qilingan "Yo'l xaritasi"ga muvofiq qo'shma dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz ilk bor Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish xalqaro qo'mitasining a'zosi etib saylandi. Baxshichilik san'ati va "Lazgi" raqsi, askiya, o'zbek dasturxonining shoh taomi va ko'ri bo'lgan osh va u bilan bog'liq udumlar nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritildi.

O'zbekistonda tarixiy meros obyektlarini himoya qilish masalalari bo'yicha xalqaro maslahat qo'mitasi faoliyati va Mintaqaviy gumanitar hamkorlik bo'yicha "Xiva jarayoni" yo'lga qo'yildi.

UNESCO O'zbekistondagi tarixiy qadamjolar, moddiy va nomoddiy yodgorliklarga butunjahon merosi sifatida qarab, kelgusi avlodga o'z asliyatini saqlagan holda yetkazish bo'yicha keng ko'lami targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirayotgani e'tiborga molik.

Qadim tarixga ega, ilm-fan sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan yurtimiz hududidagi qator moddiy va nomoddiy yodgorliklar, xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabzda tarixiy-me'moriy obidalar va Chotqol biosferasi UNESCOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, xalqimiz madaniyatining o'lmas durdonalaridan bo'lgan Boysun madaniy merosi, Navro'z, Shashmaqom, Katta ashula, atlas va adras ishlab chiqarish texnologiyalari ham insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida UNESCOning Reprerentativ ro'yxatidan joy oldi.

Tashkilot bilan hamkorlikda fan-ta'lim,



madaniyat, aloqa va axborot sohalari targ'iboti yo'lida xalqaro konferensiyalar, ko'rgazma va seminarlar o'tkazib kelinmoqda. Yurtimizda UNESCO shafeligida uyushtirilishi yo'lga qo'yilgan an'anaviy Xalqaro maqom san'ati anjumani hamkorlikdagi ishlarning yangi sahifasi bo'ldi.

Tashkilotning O'zbekistondagi vakolatxonasi umumta'lim maktablarida ta'limga yangi innovatsion o'qitish usullarini tatbiq etish va ulardan samarali foydalanish, pedagog kadrlar malakasini oshirish yo'lida izchil hamkorlik qilmoqda. Xususan, UNESCO O'zbekiston ta'lim tizimini inobatga olgan holda, 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish istiqbollari dasturi asosida yirik loyihalarni amalga oshirib kelayotir. O'qituvchilar malaka va ko'nikmasini yuksaltirish, ularning axborot texnologiyalari, xorijiy tillarni o'zlashtirishga oid bilimlari yanada mustahkamlash maqsadida qator loyihalar hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

Tashkilot bilan hamkorlikning kengayib borishi O'zbekistonning fan, ta'lim va madaniyat sohalarida yanada yuksak yutuqlarni qo'lga kiritishiga, bu esa yurtimizning dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga o'zining munosib hissasini qo'shishiga zamin yaratadi.

UNESCO bilan hamkorlikda xalqaro miqyosda ulug' ajdodlarimiz — Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Farg'oniy, Imom Buxoriy, Kamoliddin Behzod, qadimiy shaharlarimiz — Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Marg'ilon va Toshkent,

UNESCO faoliyati dunyo xalqlari o'rtasida fan, ta'lim, madaniyat sohalarida hamkorlikni rivojlantirish orqali Yer yuzida tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga hissa qo'shish, tili, dini, irqi va kelib chiqishidan qat'i nazar, odamlarga umuminsoniy munosabatni ta'minlashga qaratilgan ekan, Samarqandda o'tkaziladigan sessiya ham bugungi notinch dunyoda sayyoramiz xalqlari va davlatlarini bir-biriga yaqinlashtiruvchi mayoq vazifasini o'tashi muqarrar. Qolaversa, mintaqamizda birinchi marta o'tadigan ushbu muhim tadbir xalqaro hamjamiyatga O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining ulkan sivilizatsiyaviy salohiyatini yanada bir bor namoyish etishga xizmat qiladi.

Muhiddin PO'LATOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori.

GO'ZALLIK VA SAN'AT BAYRAMI



1 Teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari, turli animatsion shoular, milliy taomlar ko'rgazmasi va raqs liboslari namoyishi ishtirokchilarga bir olam zavqu shavq ulashdi.

Raqs san'ati ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari, sayyor konsert dasturlari uyushtirildi. "Xorazm "Lazgi" raqsi: madaniy diplomatiyani rivojlantirishning ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy yo'llari" mavzuida ilmiy anjuman o'tkazildi. Shuningdek, "Xorazm "Lazgi" raqsi: tarixi va tavsifi" kitobi taqdimoti ham tashkillashtirildi.

Xalqaro festivalni xorijlik mutaxassislar, musiqashunos olimlar, san'at ixlosmandlari, jurnalistlar, sayyohlar katta qiziqish bilan kuzatdi. Fursatdan foydalanib, anjuman ishtirokchilaridan ayrimlarining taassurotlarini yozib oldik.

Gavhar MATYOQUBOVA,
O'zbekiston xalq artisti:

— Xorazm san'atining o'ziga xos "tashrif qog'ozi" bo'lgan "Lazgi" raqsi uch ming yillik tarixga ega bo'lib, o'zining chuqur hayotiy falsafasi, o'xshashi yo'q iro uslubi va jozibasi bilan butun dunyoga mashhur.

UNESCOning Nomoddiy madaniy merosni qo'riqlash bo'yicha hukumatlararo qo'mitasining 2019-yilda Bogotada bo'lib o'tgan sessiyasida "Lazgi" raqsi insoniyatning nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro'yxatiga kiritilganligi uning betakror

o'rtoqlashish uchun ham maydon vazifasini o'tadi.

Ahamiyatlisi, ma'ruza ham aynan shu haqda. Ilmiy anjumanda turli davlatlardan kelgan san'atshunoslarning ma'ruzalari qizg'in fikr almashuvlarga, ijodiy muloqotlarga boy bo'ldi. Festivalda har bir ishtirokchining, har bir jamoaning chiqishlaridagi rang-baranglikdan zavqlanib, ko'p narsa o'rgandik.

Mun XYUNG SUK,
festival ishtirokchisi
(Janubiy Koreya):



san'at durdonasi ekanligidan dalolat beradi.

Aytish joizki, yaqinda davlatimiz rahbari viloyatimizga tashrifi chog'ida Urganch shahrida "Lazgi" va "Avesto" muzeylarini tashkil qilishni taklif etdi va bu bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi. "Lazgi" raqsining tarixi hamda falsafasi to'la ochib beriladigan ushbu muzey kelajakda mahalliy va chet ellik sayyohlarning sevimli maskaniga aylanadi.

— O'zbekiston juda ajoyib mamlakat. Bundan oldingi "Lazgi" xalqaro festivalida hakam sifatida qatnashgandim. O'shanda yuzlab ishtirokchilar orasidan munosiblarni aniqlash juda qiyin kechgan edi. Chunki tadbir qatnashchilarining ko'pchiligi "Lazgi" raqsini maromiga yetkazib ijro etishgandi.

Bu safar festivalini mehmon sifatida tomosha qildim. Bu zamin nafaqat betakror raqs san'ati, balki tarixiy obidalari va shirin-shakar mevalari, betakror milliy urf-odat hamda an'analari bilan meni maftun etdi. Festival doirasida uyushtirilgan qator ko'rgazmalar hamda unda aks ettirilgan o'zbek hunarmandlarining, tasviriy san'at ustalarining asarlari barchada katta taassurot qoldirdi.

Amaliya ALIYEVA,
festival ishtirokchisi
(Qirg'iziston):

— "Lazgi" xalqaro raqs festivali — bu mahorat, iste'dod, go'zallik bayramidir. Ertakmonand shaharning betakror jozibasi festival shukhi va tarovatini yanada oshirdi. Ertalabdan lchan qal'a uzra yangrayotgan sho'x navolar olam-olam zavq bag'ishladi.

Milliy liboslardagi yigit va qizlarning raqslarni yuksak mahorat bilan ijro etayotganini ko'rib, qoyil qolmay ilojingiz yo'q. Soz sehidan to'liqlanib, bizga hamrohlik qilayotgan hamyurtlarimiz, boshqa davlatlardan kelgan sayyohlar qadimiy bosh kiyim — cho'g'irman kiyib raqqos va raqqosalarga qo'shilib raqsga tushdik.

Asosiysi, tadbirda raqslarning har birida o'sha xalqning milliy tarixi, qadriyatleri o'z aksini topganidir. Biz ham milliy raqs san'atimiz namunalari ni ijro etib berdik.

Sulton RAYEV,
TURKSOY tashkiloti bosh kotibi:

— "Lazgi" — O'zbekistonning madaniy brendi va raqs san'atida ushbu festivalning nufuzi yildan-yilga oshib bormoqda. Yaqinda Jenevada o'tkazilgan tanlovda "Lazgi" raqsi ijro qilindigani tomoshabinlar tomonidan gulduros qarsaklar bilan olqishlandi. Sababi "Lazgi" — qalb raqsi, butun bir millat raqsi. Men keyingi safar "Lazgi" III xalqaro festivalini Turkiyada o'tkazish taklifini berdim hamda O'zbekiston tomoni bu taklifni qo'llab-quvvatladi.

Kamila LEAL ROSA,
hakamlar hay'ati a'zosi
(Braziliya):

— Xivada o'tgan xalqaro raqs festivalidan unutilmas taassurotlar oldik. Ayni chog'da festival faqat raqslar namoyishidan iborat emas, u san'atning ushbu turiga oid bilimlarni o'rganish va o'z tadqiqotlarimiz natijalari bilan

Darhaqiqat, raqsda har bir harakat tomoshabin qalbiga ma'naviy ozuqa bersagina u chinakam san'at darajasiga ko'tarila oladi. "Lazgi" raqsi inson ruhiyatini aks ettiruvchi ilohiy mo'jiza hamdir. Shu ma'noda, xalqaro festivalning o'tkazilishida ham katta ma'no mujassam.

Yakunda festival doirasida o'tkazilgan tanlov ishtirokchilarining chiqishlari hakamlar hay'ati tomonidan baholanib, nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar munosib rag'batlantirildi.

Odilbek ODAMBOYEV
("Xalq so'zi").

KITOB JAVONINGIZGA

IBRATLI UMRLARNING OTASHIN HIKOYALARI

Inson umri bir nafaslik, deymiz. Ammo shu bir nafas ham kishining o'zidan katta meros qoldirishi, xotiralarda abad saqlanuvchi ishlarni qilishi, yaxshi gaplar bilan eslanishi uchun yetarlidir. Bunday insonlar boshqalarga o'rnak bo'ladi. Turli ilmiy va badiiy asarlar uchun qahramonga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi tomonidan bugungi kunda faoliyat yuritayotgan sudyalari uchun ana shunday tom ma'noda ibrat maktabi bo'ladigan, halol-pok yashab, odamlar orasida alohida hurmat qozongan, yuksak martabaga erishgan mashhur sudyalari hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan turkum kitoblar nashr etilmoqda.

Mazkur kitoblarni chop qilish asnosida yangi jamiyatimizning bosh maqsadiga aylangan

insonni e'zozlash g'oyasining hayotiy ro'yobiga munosib hissa qo'shish ko'zda tutilgan.

O'tgan yili bosmadan chiqqan Tursunali Akbarovning "Odillik va oddiylik saodati" hamda Arslon Eshmurodovning "Munosib yashamoq baxti", "Matonatli ayol qissasi" kitoblari ham ana shunday xayrli va ezgu ishning davomi, desak, muloblag'a emas.



"Odillik va oddiylik saodati" kitobida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, "Mehnat shuhrati" ordeni va "Faxriy sudya" ko'krak nishoni sohibi Baxtiyor Mirboboyevning ibratli hayot yo'li va faoliyati haqida hikoya qilinadi.

Huquqshunoslar, mazkur

sohaga endi qadam qo'yayotgan tolibu ilmlar hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'lida mehnat qilayotgan huquq-tartibot idoralari xodimlari uchun ajoyib tufha bo'lgan "Munosib yashamoq baxti" kitobi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, taniqli

davlat va jamoat arbobi Alisher Mardiyevning sharaflari hayot yo'lga bag'ishlangan.

"Matonatli ayol qissasi" kitobi orqali esa el orasida mashhur bo'lgan, umrining katta qismini sudyalikdek og'ir va mashaqqatli sohaga bag'ishlagan yurtdoshlarimizdan biri, uzoq yillar sud-huquq tizimida samarali ish olib borgan sud faxriysi Umsun Astanova hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishasiz.

Umuman olganda, ushbu uchala kitob ham ibratli umrlarning otashin hikoyalardan tashkil topgan. Ularni o'qish chog'ida ba'zan qahramonlarga tahsin aytasiz, ba'zida yuzingizga tabassum yuguradi, ba'zan esa ko'zingizga yosh keladi...

Ushbu kitoblar ko'nglingiz va kutubxonangizdan munosib o'rin egallashiga ishonamiz.

"Xalq so'zi".

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542, 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. O'fset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va umalligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tabiriyat kompyuter markazida terildi hunda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir Z. Xudoyshekurov.
Musahhib Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.15 Topshirildi — 23.05 1 2 3 4 5 6